

Fir'avnning tahdidi



09:30 / 13.03.2022 3137

Fir'avnning jinniligi qo'zidi. Fir'avn joyida o'tirolmay qoldi. Momoqaldiraq bo'lib guldiradi, yashin bo'lib chaqnadi. Bechora Fir'avn! Bugun u kutmagan narsalar bo'ldi. U Musoni sehrgarlar bilan mag'lub qilmoqchi edi. Sehrgarlar esa endi Musoning qo'shiniga aylandi. Fir'avn sehrgarlarni xalqni Muso alayhissalomga ergashishidan qaytarishlari uchun yiqqan edi. Vaholanki, Musoga birinchi bo'lib shu sehrgarlar iymon keltirishdi.

Fir'avn otgan o'qlar uning o'ziga kelib tegdi... Fir'avn o'zini jismlarga hukmron bo'lgani kabi kishilarning aqliga ham, qalblariga ham tillariga ham hukmron deb bilardi. Uningcha, Misrda hech kim Fir'avn iznisiz hech narsaga e'tiqod qilmasligi va iymon keltirmasligi kerak edi. Shu bois u kibru-havosi va kuch-qudratiga ishongan holda dedi;

- «Men izn bermay turib unga iymon keltirdingizmi? Fir'avn podshohlar o'qlaridan birini otib: Shak-shubhasiz u sizlarga sehr o'rgatgan kattangizdir».

Ularga ikkinchi o'qni otib: «Shubhasiz bu (

ilmishingiz) ushbu shahardan uning aholisini chiqarish uchun qilgan makringizdir. Endi yaqinda bilursiz».

Va nihoyat Fir'avn o'zining sadog'idagi so'nggi-uchinchi Kinona podshohlarining zaharli o'qini otdi.

- «Albatta oyoq-qo'llaringizni qarama-qarshisiga (o'ng qo'l, chap oyog'ingizni) kesurman, so'ngra barchangizni dorga osurman».

Mo'minlar Fir'avn otgan zaharli o'qlarni iymon va sabr qalqoni bilan to'sdilar.

- «Ular dedilar; «Zarari yo'q. Zero, bizlar Parvardigorimizga qaytuvchidirmiz. Albatta bizlar (Musoga birinchi iymon keltirgan kishilar bo'lganimiz sababli) Parvardigorimiz xato-gunohlarimizni mag'firat etishini umid qilurmiz».

Ular iymonlari bilan sobit turib qizg'inlik ila dedilar:

«Bizlar esa xatolarimizni va sen bizlarni majbur qilgan sehrgarlikdan iborat (gunohimizni) mag'firat qilishi uchun Parvardigorimizga iymon keltirdik. Alloh(ning savobi) yaxshiroq va (azobi) uzunroqdir». Hech shubha yo'qki, kimda-kim Parvardigorining (huzuriga) jinoyatchi-kofir bo'lgan holda kelsa, u holda albatta uning uchun Jahannam bor bo'lib, (u kofir) u joyda na o'la olur va na yashay olur. Kim U zotga yaxshi amallar qilgan mo'min holida kelsa, bas, ana o'sha (kishilar) uchun yuksak darajalar - ostidan daryolar oqadigan, ular abadiy qoladigan jannatlar bo'lur. Bu (shirku-kufirdan) pok bo'lgan kishilarning mukofotidir!».

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad